

**TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**TOSHKENT VILOYATIDA
XIZMATLAR SOHASINING
RIVOJLANISHI**

**2023- YILNING
YANVAR-IYUN OYLARIDA**

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi –
14 507,5 mlrd. so'm



Xizmatlar sohasida kichik biznesning
ulushi – **69,2 %**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi – **4 825,1 ming so'm**



Xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, samarali bandlik va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 471,8** mlrd. so'mga oshib, **14 507,5** mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,3 %**ni tashkil etdi. O'tgan yili ushbu ko'rsatkich **114,5 %**ga to'g'ri kelgan.




Diskret qiymatlar bu – qiymatlari faqat ma’lum daqiqalarda, ma’lum vaqt oralig’ida (oy, chorak, yil) belgilangan, o’lchangan, hisoblangan ko’rsatkichlar.

2022- yil iyun oyiga nisbatan (**2 272,9** mlrd. so‘m), 2023- yil iyun (diskret oy) uchun taqdim etilgan bozor xizmatlari hajmi (**2 671,4** mlrd. so‘m) **398,5** mlrd. so‘mga oshdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil iyun oyidagi xizmatlar hajmi 2021- yil iyuniga nisbatan **471,0** mlrd. so‘mga oshgan.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so‘m



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlar egallaydi. 2023- yil yanvar-iyun oylarida bu xizmatlarning ulushi **32,6** %ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (**22,5** %), moliyaviy xizmatlar (**15,7** %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**4,3** %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**3,4**%)da qayd etildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %da (2023- yil yanvar-iyun)





2023- yil yanvar-iyun oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**23,0 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**22,7 %**), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**13,2 %**), shuningdek, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (**8,0 %**) hamda savdo xizmatlari (**5,5 %**)da qayd etildi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini oshirishga xizmat turlari bo'yicha qo'shgan hissasi, %da





TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm		O'sish sur'ati, %da
	2022- y.	2023- y.	
Xizmatlar – jami	12 035,7	14 507,5	107,3
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	394,3	497,1	122,7
Moliyaviy xizmatlar	1 678,0	2 270,5	123,0
Transport xizmatlari	2 813,4	3 267,2	100,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>2 553,6</i>	<i>3 030,9</i>	<i>104,9</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	478,5	630,8	104,7
Savdo xizmatlari	4 012,6	4 723,6	105,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	394,0	448,2	104,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	304,4	328,8	100,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	286,0	372,4	113,2
Ijara xizmatlari	345,7	387,9	103,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	270,8	321,3	103,9
Shaxsiy xizmatlar	362,9	437,4	104,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	250,9	294,4	108,0
Boshqa xizmatlar	444,2	527,9	110,2



Aholi tomonidan xizmatlar sohasining har xil turlariga bo'lgan talabning barqaror o'sishi va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan infratuzilmani (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, savdo va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar xizmat ko'rsatish sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta'minladi.

Masalan, savdo ibtidoiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talabini yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi.

Hozirgi vaqtda savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining muhim qismini tashkil etadi.





32,6

2023-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari ulushi

O'sish sur'ati,
%da

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm






Hozirgi vaqtda Toshkent viloyatida dengiz hamda havo transportidan tashqari barcha zamonaviy transport turlari mavjud.

Viloyatda davlat hududi bo'ylab kesib o'tadigan temir yo'l tarmog'i mavjud. Shu bilan birga, avtomobil yo'llari tarmog'i ham rivojlangan.

2023- yil yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi **3 267,2** mlrd. so'mni tashkil etdi, ularning o'sishi 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **100,1** %ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **22,5** %ni tashkil qilmoqda.



*O'sish sur'ati,
%da*




*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*





TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**O'sish
sur'ati, %da**



**Xizmatlar
hajmi,
mlrd.
so'm**




Transport xizmatlari (2023- yil yanvar-iyun)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	97,4	100,6
Olmaliq shahar	225,0	107,7
Angren shahar	216,9	103,0
Bekobod shahar	182,7	106,7
Ohangaron shahar	51,9	100,4
Chirchiq shahar	260,5	100,6
Yangiyo'l shahar	136,0	98,8
Oqqo'rg'on tumani	65,2	100,4
Ohangaron tumani	55,0	107,1
Bekobod tumani	95,7	106,7
Bo'stonliq tumani	184,8	110,1
Bo'ka tumani	68,7	102,3
Quyi Chirchiq tumani	178,3	109,6
Zangiota tumani	192,0	107,9
Yuqori Chirchiq tumani	244,1	106,9
Qibray tumani	217,8	97,0
Parkent tumani	165,0	107,1
Piskent tumani	80,1	98,6
O'rta Chirchiq tumani	86,0	107,3
Chinoz tumani	115,4	104,7
Yangiyo'l tumani	211,2	97,8
Toshkent tumani	137,5	104,9

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlarga to‘g‘ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.


2023- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti xizmatlari hajmi **3 030,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi, ularning o‘sishi 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **104,9** %ni tashkil etdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **20,9** %ni tashkil qilmoqda.



*O‘sinh sur‘ati,
%da*



*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so‘m*




Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamini kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.




Moliyaviy xizmatlar (yanvar-iyun)

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **592,5** mlrd. so'mga oshdi va **2 270,5** mlrd. so'mga yetdi. Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida **15,7** %ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **123,0** %ni tashkil etdi.


O'sish sur'ati,
%da



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm



Moliyaviy xizmatlar tarkibi, %da
(2023- yil yanvar-iyun)




1. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar
2. Sug'urta bo'yicha xizmatlar
3. Yordamchi moliyaviy faoliyat


Moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar-iyun)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	64,4	106,0
Olmaliq shahar	240,8	113,5
Angren shahar	149,0	108,6
Bekobod shahar	99,6	112,5
Ohangaron shahar	30,2	105,8
Chirchiq shahar	229,3	106,1
Yangiyo'l shahar	70,7	104,2
Oqqo'rg'on tumani	39,0	105,8
Ohangaron tumani	22,2	113,0
Bekobod tumani	114,3	112,5
Bo'stonliq tumani	220,5	116,1
Bo'ka tumani	36,9	107,9
Quy Chirchiq tumani	76,7	115,6
Zangiota tumani	265,2	113,7
Yuqori Chirchiq tumani	62,5	112,8
Qibray tumani	258,5	102,3
Parkent tumani	68,1	113,0
Piskent tumani	35,2	103,9
O'rta Chirchiq tumani	28,2	113,1
Chinoz tumani	84,9	110,4
Yangiyo'l tumani	42,2	103,1
Toshkent tumani	32,1	110,6

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi, iqtisodiyotning turli sohalarida mavjud bo'lgan tovar va xizmatlar bozorini kengaytirish va yangilarini barpo etish, oxir-oqibatda aholi turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %da (2023- yil yanvar-iyun)



O'sish sur'ati, %da



Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-iyun)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	17,4	113,5
Olmaliq shahar	23,2	121,5
Angren shahar	23,8	116,3
Bekobod shahar	14,2	120,4
Ohangaron shahar	7,7	113,3
Chirchiq shahar	38,3	113,6
Yangiyo'l shahar	8,3	111,6
Oqqo'rg'on tumani	16,2	113,3
Ohangaron tumani	16,0	120,9
Bekobod tumani	24,4	120,4
Bo'stonliq tumani	49,9	124,3
Bo'ka tumani	15,8	115,5
Quyi Chirchiq tumani	21,0	123,7
Zangiota tumani	27,4	121,7
Yuqori Chirchiq tumani	20,8	120,7
Qibray tumani	29,1	109,5
Parkent tumani	20,3	120,9
Piskent tumani	16,1	111,2
O'rta Chirchiq tumani	26,6	121,1
Chinoz tumani	24,8	118,2
Yangiyo'l tumani	28,8	110,3
Toshkent tumani	27,0	118,4

2023- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining yuqori o'sishi Bo'stonliq tumani (**24,3** %), Quyi Chirchiq tumani (**23,7** %), Zangiota tumani (**21,7** %) hamda Olmaliq shahar (**21,5** %)da qayd etildi.

Ushbu xizmatlar hajmining nisbatan biroz o'sishi Qibray tumanida kuzatildi – **9,5** %.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-iyun)




Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-iyun)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	7,5	108,8
Olmalik shahar	23,4	116,5
Angren shahar	22,2	111,5
Bekobod shahar	13,3	115,4
Ohangaron shahar	5,6	108,6
Chirchiq shahar	94,8	108,9
Yangiyo'l shahar	14,4	107,0
Oqqo'rg'on tumani	4,1	108,6
Ohangaron tumani	2,9	115,9
Bekobod tumani	5,1	115,4
Bo'stonliq tumani	7,7	119,1
Bo'ka tumani	5,1	110,7
Quyichirchiq tumani	7,5	118,6
Zangiota tumani	46,9	116,7
Yuqori Chirchiq tumani	11,0	115,7
Qibray tumani	18,7	105,0
Parkent tumani	9,8	115,9
Piskent tumani	3,1	106,7
O'rta Chirchiq tumani	4,0	116,1
Chinoz tumani	6,4	113,3
Yangiyo'l tumani	3,7	105,8
Toshkent tumani	11,6	113,5

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-iyun)

O'sish sur'ati,
%da




Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-iyun)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	10,7	101,3
Olmaliq shahar	18,3	108,5
Angren shahar	12,6	103,8
Bekobod shahar	15,6	107,5
Ohangaron shahar	2,6	101,2
Chirchiq shahar	23,3	101,4
Yangiyo'l shahar	6,8	99,6
Oqqo'rg'on tumani	2,9	101,2
Ohangaron tumani	0,9	108,0
Bekobod tumani	2,7	107,5
Bo'stonliq tumani	57,8	115,0
Bo'ka tumani	1,7	103,1
Quyichirchiq tumani	1,9	110,5
Zangiota tumani	65,7	118,7
Yuqori Chirchiq tumani	7,2	107,8
Qibray tumani	30,7	97,8
Parkent tumani	2,3	108,0
Piskent tumani	0,9	99,3
O'rta Chirchiq tumani	12,5	108,1
Chinoz tumani	11,8	105,5
Yangiyo'l tumani	10,6	98,5
Toshkent tumani	72,9	115,7

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-iyun)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2023- yil yanvar-iyun)



Hajm, mlrd. so'm

O'sish sur'ati, %da




Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati ¹⁾	14 507,5	107,3
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	441,6	103,8
Olmaliq	1 054,9	111,2
Angren	949,8	106,4
Bekobod	703,7	110,2
Ohangaron	278,8	103,6
Chirchiq	1 185,1	103,9
Yangiyo'l	607,4	102,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	377,4	103,7
Ohangaron	222,6	110,6
Bekobod	441,2	110,1
Bo'stonliq	948,1	113,7

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda



Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Bo'ka	406,0	105,7
Quyichirchiq	393,7	113,2
Zangiota	1 448,0	111,4
Yuqorichirchiq	641,4	110,4
Qibray	1 156,3	100,2
Parkent	564,7	110,6
Piskent	222,3	101,8
O'rta Chirchiq	493,3	110,8
Chinoz	480,2	108,1
Yangiyo'l	654,6	100,9
Toshkent	836,4	108,3

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil bu – aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi.




**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining
asosiy ko'rsatkichlari
(yanvar-iyun)**


2023- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 825,1** ming so'mga yetdi. 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **105,3** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 078,5** ming so'mni tashkil etgan.

**O'sish sur'ati,
%da**




**Xizmatlar hajmi,
ming. so'm**





2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha bu ko'rsatkich Zangiota tumanida **8 624,2** ming so'mdan Ohangaron tumanida **2 030,6** ming so'mgachani tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
asosiy ko'rsatkichlari**
(2023- yil yanvar-iyun)




2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



2022- yilning mos davriga nisbatan ular sonining kamayishi

2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati



2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-iyun)

O'sish sur'atlari, %da



Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm



**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 71-202-86-72**